

PUBLITSISTIK XABARLARNING O'ZBEK-ARAB TARJIMASIDA YO'L QO'YILADIGAN XATOLIKLAR TAHLILI

ANALYSIS OF ERRORS IN UZBEK-ARABIC TRANSLATION OF JOURNALISTIC NEWS

АНАЛИЗ ОШИБОК В УЗБЕКСКО-АРАБСКОМ ПЕРЕВОДЕ ЖУРНАЛИСТСКИХ НОВОСТЕЙ.

O'ktamova Mehribonu Marvarid qizi

O'zDJTU Tarjimonlik fakulteti talabasi

mehribonu550@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada <https://uza.uz/uz> O'zbekiston Axborot agentligi rasmiy axborot saytidagi xabar va yangiliklarni chet tillariga, xususan, arab tiliga tarjima qilganda kuzatiladigan ba'zi kamchiliklar ochib beriladi. O'zbek-arab tarjima jarayonida yo'l qo'yilgan lingvistik, orfografik va mazmuniy xatolar tadqiq qilinadi. Tahlil uchun Uza rasmiy saytidan publitsistik maqola tanlab olinadi. Tadqiqot natijalari yoritilib, xulosa sifatida tarjimada tarjimon e'tibor berishi kerak bo'lgan ba'zi jihatlar keltiriladi.

Kalit so'zlar: axborot tizimi, o'zbek-arab tarjima, UzA.uz, orfografik xato, tarjimon, publitsistik xabar, lingvistik xato

Abstract . This article reveals several shortcomings observed when translating news and reports from the official website of the Uzbekistan National News Agency (UzA) into foreign languages, particularly Arabic. The study examines linguistic, orthographic, and semantic errors made during the Uzbek–Arabic translation process. For analysis, a journalistic article from the official UzA website was selected. The findings of the research are presented, and as a conclusion, several aspects that translators should pay attention to during translation are highlighted.

Keywords: information system, Uzbek–Arabic translation, UzA.uz, orthographic error, translator, journalistic report, linguistic error.

Аннотация. В данной статье раскрываются некоторые недостатки, возникающие при переводе новостей и сообщений с официального сайта Национального информационного агентства Узбекистана (UzA) на иностранные языки, в частности на арабский. Исследуются лингвистические, орфографические и смысловые ошибки, допускаемые в процессе узбекско-арабского перевода. Для анализа была выбрана публицистическая статья с официального сайта UzA. Изложены результаты исследования и в качестве вывода приведены некоторые аспекты, на которые переводчику следует обратить внимание при выполнении перевода.

Ключевые слова: информационная система, узбекско-арабский перевод, UzA.uz, орфографическая ошибка, переводчик, публицистическое сообщение, лингвистическая ошибка.

Bugungi kunda raqamli media va onlayn axborot tizimi ommalashganligi tufayli, yangiliklardan ommaviy axborot vositalari orqali xabardor bo'lish imkoniga egamiz. Albatta bunda rasmiy va ishonchli manbalardan foydalanish tavsiya etiladi. O'zbekiston Milliy axborot agentligi o'z rasmiy saytiga ega hisoblanadi. Bunda publitsistik xabarlar 10ta tilga tarjima qilingan holda berib boriladi. Bu sayt eng ishonchli manba sifatida qaralganligi tufayli, boshqa tillarga, xususan arab tiliga tarjima qilish jarayonida xato va kamchiliklarga yo'l qo'ymaslik muhim omil hisoblanadi. Aks holda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ba'zi bir muhim xatoliklar ushbu maqolada ochib beriladi.

Tadqiqotning asosiy manbasi sifatida ushbu rasmiy xabar tanlab olindi:

اختتام زيارة عمل لرئيس جمهورية أوزبكستان لطاجيكستان

اختتمت زيارة عمل لفخامة الرئيس شوكت ميرضيائيف رئيس جمهورية أوزبكستان لطاجيكستان. والتقى رئيس دولتنا أثناء هذه الزيارة بفخامة الرئيس إمام علي رحمن رئيس جمهورية طاجيكستان.

وشارك الرئيس الأوزبكي في القمة الثانية "آسيا الوسطى – روسيا" وقمة مجلس رؤساء الدول الأعضاء في رابطة الدول المستقلة اللتان استضافتهما العاصمة دوشنبه.

وطرح فخامته عددا من المبادرات والاقتراحات الرامية إلى توسيع نطاق التعاون العملي في المجالات السياسية والاقتصادية والإنسانية.

وكان معالي السيد قاهر رسولزادة رئيس وزراء جمهورية طاجيكستان وغيره من المسؤولين في توديع رئيس بلادنا في مطار دوشنبه الدولي.

Tarjimasi

O'zbekiston Prezidenti Tojikistonga amaliy tashrifini yakunladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tojikistonga amaliy tashrifi yakunlandi. Tashrif doirasida davlatimiz rahbari Tojikiston Respublikasi Prezidenti Imomali Rahmon bilan muzokara o'tkazdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Dushanbe shahrida o'tgan "Markaziy Osiyo – Rossiya" formatidagi ikkinchi sammit va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Davlat rahbarlari kengashining navbatdagi yig'ilishida ishtirok etdi. O'zbekiston yetakchisi siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalardagi amaliy hamkorlikni kengaytirish va ko'p tomonlama sheriklik natijadorligini oshirishga qaratilgan qator tashabbuslarni ilgari surdi. Tashrif dasturidagi tadbirlar yakunlangach, Dushanbe xalqaro aeroportida oliy martabali mehmonni Tojikiston Bosh vaziri Qohir Rasulzoda va boshqa rasmiy shaxslar kuzatib qo'ydi. Davlatimiz rahbari Toshkentga jo'nab ketdi.

II Tahlil

2.1 Lingvistik xatolar tahlili

Lingvistik xato — bu til tizimining grammatik, leksik yoki sintaktik me'yorlariga zid tarzda so'z, shakl yoki gap tuzish natijasida yuzaga keladigan nutqiy og'ishdir. Tarjima jarayonida lingvistik xatolar muhim o'rin tutadi, chunki ular tarjima matnining mazmuni, aniqligi va uslubiy to'g'riligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, publitsistik xabar va rasmiy hujjatlarda lingvistika me'yorlariga rioya

qilinmasa, lingvistik xatolar kuzatiladi. Bu borada A. Beysenova va X. Kadirova⁵⁹ shunday deydi: “Har qanday turdagi hujjat qisqa, lo‘nda, aniq va hammaga tushunarli tarzda bo‘lishi muhim ahamiyatga ega. Zero, bu hujjat yoki xabardan nafaqat ushbu soha vakillari, balki oddiy xalq foydalanadi. Bunda lingvistik me‘yorlarga qat’iy rioya qilish talab etiladi”⁵⁹

Mazkur maqolada:

- التقي - so‘zi lug‘atda “muzokara o‘tkazmoq” sifatida tarjima qilingan, uning to‘g‘ridan-to‘g‘ri tarjimasi esa lug‘atlarda “uchrashdi” sifatida keladi. Muzokara o‘tkazmoq so‘zi uchun esa maxsus تناظر yoki تجادل kabi so‘zlar arab-o‘zbek lug‘atlarda mavjud hisoblanadi.

2.2 Orfografik xatolar tahlili

Orfografik xatolar - imloviy qoidalar va yozilish tartibi bilan bogliq kamchiliklar hisoblanadi. Publitsistik xabarlarda bunday xatolarga yo‘l qoyish maqola va bevosita jurnalning saviyasining tushishiga sababchi bo‘ladi. Shamsuddin Fayziyev⁶⁰ tadqiqotiga ko‘ra orfografik xatolar butun dunyoda hatto arab OAVlarida ham keng traqalgan bolib, ularni quyidagi turlarga ajratish mukmin:

1. Hamzaning noto‘g‘ri yozilishi. Bu quyidagi shakllarda ro‘y beradi:

a) Hamzasiz aliflarga hamza qo‘yish.

Masalan: إسم، الإمتحان

Aslida : اسم، الامتحان deb yozish to‘g‘ri.

b) hamzali aliflarga hamza qo‘ymaslik.

Masalan: اخراج، أخطاء

Aslida : إخراج، أخطاء deb yozish kerak

c) hamzani noto‘g‘i ko‘rinishda yozish.

Masalan: جزئاً، شيئاً، مسئولية

Aslida : جزء، شيئاً، مسؤولية deb yozish kerak.

2. “ta: marbuta” التاء المربوطة ni “ta: mamduda” bilan almashtirib qo‘yish:

Masalan: رحمت

Aslida: رحمة kabi yozilishi kerak

Mazkur maqolaning arab tiliga tarjima jarayonida esa:

• الرئيس so‘zi o‘rniga الرئيس so‘zi qo‘llangan bo‘lib, bu yerda yo ي harfi tushib qolgan bo‘llib, so‘z imlo qoidalariga zid ravishda xato yozilgan.

• المسؤولين so‘zi ham orfografik qoidalariga nomuvofiq tartibda yozilgan bo‘lib, hamzaga kursi sifatida ئ o‘rniga و yozilishi kerak edi.

⁵⁹ Beysenova, A., & Kadirova, X. (2024). SOLIQ SOHASIGA OID NORMATIV-HUQUQIY HujjatlariDagi Lingvistik Muammolar. O‘zbek Tilining Xorijda O‘qitilishi: Ta’lim Nazariyasi va Amaliyoti, 1(01), 96-100.

⁶⁰ Fayziyev, S. (2025). Arab Ommaviy Axborot Vositalarida Keng Tarqalgan Stilistik Xatolar. Filologiya Masalalari (Magistratura), 1(M1), 53-59.

2.3 Mazmuniy xatolar tahlili

Mazmuniy xatolar – bular jumlada mavjud soʻz va gaplarning tushib qolishi, yoki, aksincha, mavjud boʻlmagan gaplarning tarjimon tomonidan qoʻshilishi oqibatida vujudga keladigan kamchiliklar. Ular axborot kuzatuvchilarning ishonchsizligiga va eʼtiboridan chetda qolishga sabab bolishi mumkin.

Ushbu tarjimada:

- “Davlatimiz rahbari Toshkentga joʻnab ketdi.” Jumlasini arab tiliga tarjima qilinmagan. Natijada maʼlumot tugallanmagan.
- “Koʻp tomonlama sheriklik natijadorligini oshirishga qaratilgan qator tashabbuslar” jumlasini ham oʻzbek-arab tarjimada aks etmagan va xabarda nuqsonga yoʻl qoʻyilib, maʼno yoʻqotilishi sodir boʻlgan.
- الإقتراحات – soʻzi maqolaga tarjimon tomonidan qoʻshilgan bolib, asli bunday soʻz ortiqcha deb qaraladi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, UzA Oʻzbekiston Milliy Axborot Agentligi rasmiy va eng ishonchli axborot manbayi boʻlganligi sababli, oʻzbek tilidagi rasmiy xabarlarini boshqa chet tillariga, xossatan, arab tiliga tarjima qilganda bunday orfografik, mazmuniy va lingvistik xatolarning oldini olish maqsadga muvofiq boʻladi. Chunki ommaviy axborot tizimidagi rasmiy xabarlar 10ta xorijiy tillarga tarjima qilinadi va bu rasmiy sayt Oʻzbekistonning yuzi hisoblanadi. Har bir tarjima sifatli va ishonchli boʻlishi uchun oʻzbek-arab tarjima jarayonida toʻliqlikka, imloviy xatolar va mazmuniy kamchiliklarga eʼtiborli boʻlish tarjimonlarga tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Zaynobiddinova, K. B. (2025). Siyosiy Matnlar Tarjima Jarayonida Til Birliklarining OʻZgarish Xususiyatlari. Modern Education And Development, 20(4), 415-422.
2. Beysenova, A., & Kadirova, X. (2024). Soliq Sohasiga Oid Normativ-Huquqiy Hujjatlaridagi Lingvistik Muammolar. Oʻzbek Tilining Xorijda OʻQitilishi: Taʼlim Nazariyasi Va Amaliyoti, 1(01), 96-100.
3. Fayziyev, S. (2025). Arab Ommaviy Axborot Vositalarida Keng Tarqalgan Stilistik Xatolar. Filologiya Masalalari (Magistratura), 1(M1), 53-59
4. <https://uza.uz/uz>